

Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida, Samarqand viloyatida jami 18 637,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	18 637,5	117,3
<i>Shaharlar</i>		
Samarqand sh.	5 378,6	114,1
Kattaqo'rg'on sh.	337,8	191,4
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	773,9	119,3
Bulung'ur	346,5	120,1
Jomboy	510,3	120,4
Ishtixon	355,7	122,0
Kattaqo'rg'on	867,7	114,9
Qo'shrabot	418,6	122,3
Narpay	221,9	123,9
Payariq	3 031,7	113,1
Pastdarg'om	1 132,9	120,7
Paxtachi	228,9	119,3
Samarqand	576,1	167,2
Nurobod	165,0	124,2
Urgut	405,9	116,2
Toyloq	1 387,1	121,1
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	2 498,9	109,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 34,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 57,8 % ni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 63,0% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	199,2	2 160,9	0,0
o'sish sur'ati, % da	21,3	2,3 m.	0,0
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3 518,7	9 579,2	549,4
o'sish sur'ati, % da	46,4	126,2	140,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 630,1	-	-
o'sish sur'ati, % da	111,9	-	-

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 360,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 12,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,2 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 120,0 % ni tashkil etgan holda 13 647,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 14,1 % ni yoki 2 630,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Samarqand viloyati	2 360,2	13 647,2	2 630,1	114,1	120,0	111,9
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	269,5	4 898,0	211,1	74,9	117,3	193,0
Kattaqo'rg'on sh.	-	262,1	75,7	-	180,0	2,4 m.
<i>tumanlar</i>						
Oqdaryo	60,7	645,6	67,5	90,3	123,0	119,9
Bulung'ur	40,4	231,1	75,0	164,0	112,4	129,4
Jomboy	48,3	400,1	62,0	176,4	115,2	126,2
Ishtixon	31,8	274,2	49,8	2,9 m.	116,6	108,0
Kattaqo'rg'on	17,9	809,4	40,4	137,2	116,4	111,5
Qo'shrabot	194,3	171,4	53,0	2,3 m.	128,4	114,6
Narpay	8,4	149,3	64,1	147,2	125,2	118,3
Payariq	111,0	2 869,6	51,1	156,3	112,4	89,1
Pastdarg'om	474,5	580,9	77,5	113,7	124,9	139,6
Paxtachi	10,4	156,4	62,1	101,3	115,5	137,9
Samarqand	195,5	310,3	70,3	3,4 m.	137,7	110,7
Nurobod	19,7	84,6	60,7	106,5	129,7	126,1
Urgut	13,0	318,9	74,0	117,1	115,4	119,5
Toyloq	530,2	776,3	80,7	98,0	199,1	36,3
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	334,6	709,0	1 455,1	116,6	104,0	110,9

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 3,4 m.), Ishtixon tumanida (2,9 m.) va Qo'shrabot tumani (2,3 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Toyloq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 199,1%), Kattaqo'rg'on shahrida (180,0%) va Samarqand tumanida (137,7%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

L. Haitov
66 235-60-82 (3020)

Manzil:

